



**O'ZBEKISTOBDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNATINI
MOLIYALASHTIRISHNING MAVJUD TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI**

Sevunov Turg'unbek Radjabovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti 2 - kurs tayanch doktoranti.

+998887410082.

sevunovturgunbek@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqola nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini moliyalashtirishning mavjud holatini o'rganadi va bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol hamda moliyalashtirish tizimining hozirgi faoliyatini bayon qiladi.*

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatini moliyalashtirishning mavjud tizimi, uning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, inklyuziv bandlikni rivojlantirish, raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish va ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiya qilish kabi zamonaviy tendensiyalar yoritilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozorida ishtirokini kengaytirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Nogironligi bo'lgan shaxslar, inklyuziv bandlik, mehnat bozori, moliyalashtirish mexanizmi, ijtimoiy himoya, ish beruvchilarni rag'batlantirish, iqtisodiy faollik.*

**СУЩЕСТВУЮЩАЯ СИСТЕМА ФИНАНСИРОВАНИЯ ТРУДА ЛИЦ С
ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ И ТЕНДЕНЦИИ ЕЁ РАЗВИТИЯ**

Аннотация: *В данной статье изучается текущее состояние финансирования труда лиц с инвалидностью и излагается современная социально-экономическая ситуация, а также функционирование существующей системы финансирования.*

Проанализированы существующая система финансирования труда лиц с инвалидностью в Узбекистане, её нормативно-правовые основы и практические механизмы. Также освещены современные тенденции, такие как развитие инклюзивной занятости, внедрение цифровых механизмов мониторинга и интеграция с системой социальной защиты. Результаты исследования показывают необходимость совершенствования механизмов финансовой поддержки для расширения участия лиц с инвалидностью на рынке труда и повышения их экономической активности.

Ключевые слова: *Лица с инвалидностью, инклюзивная занятость, рынок труда, механизм финансирования, социальная защита, стимулирование работодателей, экономическая активность.*





**THE EXISTING SYSTEM OF FINANCING THE LABOR OF PERSONS WITH
DISABILITIES IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT TRENDS**

Abstract: *This article examines the current state of financing the labor of persons with disabilities and describes the present socio-economic situation as well as the functioning of the existing financing system.*

The existing system of financing the labor of persons with disabilities in Uzbekistan, its legal and regulatory framework, and practical mechanisms are analyzed. Modern trends such as the development of inclusive employment, the introduction of digital monitoring mechanisms, and integration with the social protection system are also highlighted. The research results indicate the need to improve financial support mechanisms in order to expand the participation of persons with disabilities in the labor market and to increase their economic activity.

Keywords: *Persons with disabilities, inclusive employment, labor market, financing mechanism, social protection, employer incentives, economic activity.*

Nogironligi bo'lgan shaxslarni moliyaviy jihatdan faoliyatini ta'minlash va ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Bu masala inson huquqlari va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslanib, nogironlar uchun iqtisodiy mustaqillik va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy yordamlar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlat va jamiyat tomonidan nogiron shaxslarning faoliyatini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash maqsad qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aholining 2,4 % ini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etib, katta yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslarning o'rtacha 34 ming nafari (5%) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band ekanligi masalaning mohiyatini yanada oshiradi. Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarning 3,5 % ini I guruh, 55,8% ni II guruh va 40,7% ni III guruhdagilar tashkil etadi.⁹⁶

Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnatini muhofaza qilish va ularga qulay ish sharoitlarini yaratish masalasi tendensiyaviy jarayon sifatida doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar asosiy e'tiborni ularning imkoniyatlarini kengaytirish va inkluziv sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan. Mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni jamiyatga integratsiya qilish va qulay ish muhitini yaratish uchun muhim talablarga amal qilinmoqda.

⁹⁶ Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. – Ташкент, 2012. – С. 116.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'tgan yillar davomida mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini muhofaza qilish va moliyalashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay ish joylarini yaratish va ularning mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, tendensiyaviy tarzda olib borilmoqda. Shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol qatnashishini ta'minlashga qaratilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni munosib ish bilan ta‘minlash orqali ularning bandligini 2 barobar oshirish maqsad qilib belgilagan. Ushbu maqsadning strategiyada belgilab qo‘yilishi yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatda o‘z o‘rnini to‘laqonli egallashi va doimiy daromadga ega bo‘lishi uchun mehnat bozorida ularning bandligi oshishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo‘lgan 755 ming nafardan ortiq shaxs istiqomat qiladi (ularning 56 foizi erkaklar). Ularning mehnatga layoqatli aholi orasidagi ulushi 3,7 foizni tashkil etadi. 2022-yilda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bor yo‘g‘i 7144 nafari iqtisodiyotda band bo‘lgan va ular orasidagi bandlik darajasi 3,7 foizni tashkil qilgan (mehnatga layoqatli jami aholiga nisbatan). Ta’kidlab o‘tish joizki, yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar orasidagi bandlik boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha past, xususan Xitoyda 80 foiz, Kanadada 59 foiz, Avstraliyada 54 foiz, Shvesiyada 53 foiz, Buyuk Britaniyada 53 foiz, Norvegiyada 44 foiz, AQShda 31 foiz, Qozog‘istonda 30 foiz nogironligi bo‘lgan shaxslar iqtisodiyotda band.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar asosan sanoat (33,6 foiz), ta’lim (15,4 foiz) va sog‘liqni saqlash (11,7 foiz) tarmoqlarida faoliyat yuritadi. Aytib o‘tish joizki, bu tarmoqlarda ish haqi boshqa sohalaridagiga qaraganda pastroq (ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi o‘rtacha oylik ish haqi respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqining 80 foizini tashkil etadi).

Jahon Banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar orasidagi bandlik darajasining pastligi eng avvalo nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ochiq mehnat bozoriga va professional ta’lim olish dasturlariga imkoniyatlarning cheklanganligi, shuningdek, ish joyida ijtimoiy va iqtisodiy himoyaning sustligi bilan bog‘liqligi aniqlangan.⁹⁷

So‘nggi yillarda O‘zbekiston mamlakatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat muhofazasi va ularga qulay ish muhitini yaratish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu tizimni moliyalashtirish va rivojlantirish davlat uchun ustuvor va dolzarb masala hisoblanmoqda. Asosiy sabablardan biri — O‘zbekistonning jahon miqyosida tendensiyaviy

⁹⁷ **Muhabbat Ahmedova MHTI loyiha rahbari, Ilhom Ikromov MHTI katta ilmiy xodimi.** O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida inklyuziv bandligini ta‘minlashning muhim jihatlari. [6 марта 2024//
https://www.bing.com/ck/a?!&&p=70631e0a8b7c1abf8294aaf604ed8d85bff61aed7c474146119e1ba0de0316c2JmldtHM9MTc2NzU3MTIwMA&pptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=nogironligi+bo%27lgan+shaxslar+mehnatini+moliyalashtirishning+mavjud+tizimi+va+uning+riv+ojlanish+&u=a1aHR0cHM6Ly9pbXJzLnV6L3B1YmxpY2F0aW9ucy9hcnRpY2xlcY1hbmQtYWJzdHJhY3RzL2JhbmRsaWtuaV90YW1pbmxc2g](https://www.bing.com/ck/a?!&&p=70631e0a8b7c1abf8294aaf604ed8d85bff61aed7c474146119e1ba0de0316c2JmldtHM9MTc2NzU3MTIwMA&pptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=nogironligi+bo%27lgan+shaxslar+mehnatini+moliyalashtirishning+mavjud+tizimi+va+uning+riv+ojlanish+&u=a1aHR0cHM6Ly9pbXJzLnV6L3B1YmxpY2F0aW9ucy9hcnRpY2xlcY1hbmQtYWJzdHJhY3RzL2JhbmRsaWtuaV90YW1pbmxc2g)





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ravishda integratsiyalashuvi va standart faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan strategiyalaridir. Bu jarayon nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol qatnashishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarini zahirada saqlash mexanizmi Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda joriy qilingan. Mazkur davlatlarda xodimlarning soni 20 kishidan 50 kishigacha bo'lgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar 2 % dan 6 % gacha ish o'rinlarini zahirada saqlashlari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida 20 kishidan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar 3% ish o'rinlarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zahirada saqlashlari lozim.⁹⁸

O'tgan yillar davomida nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini moliyalashtirish va ularning faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan. Bu muammolar tizimli ravishda hal etilishi zarur bo'lib, ularni moliyaviy jihatdan ta'minlash va muammolarini bartaraf etish hozirgi vaqtda ham dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Birinchi muammo nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini moliyalashtirishda yuzaga kelayotgan muammolar bilan bog'liq. Ushbu muammolar tizimli moliyalashtirish faoliyatida to'siqlar mavjudligi va ish o'rinlarining yaratilmaganligi bilan bog'liq. Ya'ni, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar va mexanizmlar yetarli darajada tashkil etilmagan, shuningdek, ularning ishga joylashishi uchun zarur bo'lgan ish o'rinlari yaratilmagan. Bu muammolar nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishini cheklab, ularning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ikkinchi muammo nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnati va moliyalashtirishda huquqiy tizimning yetarlicha yaratilmaganligi bilan bog'liq. Bu sohada normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan, natijada, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari va moliyaviy ta'minoti uchun asosiy huquqiy baza yetishmasligi muammo sifatida yuzaga kelmoqda.

⁹⁸ И.А.Каримов Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Биринчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ўн тўртинчи сессиясидаги маъруза, 1999 йил 14 апрель. Материалы международного форума «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». – Ташкент, 2012. – С. 117.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Uchinchi muammo nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay bo'lgan inkluziv ish o'rinlarning yaratilmaganligi va ularga sharoitlarning yetarlicha taqdim etilmaganligi bilan bog'liq. Bu muammo nogironligi bo'lgan insonlarning jamiyatda faol qatnashishi uchun muhim bo'lgan ish joylari va ish sharoitlarining yetishmasligi, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasiga to'sqinlik qilmoqda. Inkluziv ish o'rinlari, ya'ni, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan va qulay bo'lgan ish joylari, hozirgi kunda yetarli darajada yaratilmaganligi sababli, ular uchun imkoniyatlar cheklangan. Bu muammo, shuningdek, sharoitlarning yetarlicha ochib berilmaganligi bilan ham bog'liq bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga kirishish va faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan infratuzilma, texnologiya va yordam vositalarining yetishmasligini ko'rsatadi. Natijada, ular jamiyatda teng huquqlarga ega bo'lish va o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lishmolda.


To'rtinchi muammo jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatga nisbatan ishonchsizlik va atrofda odamlarning ularning mehnatini qadrlamaslik holatlari bilan bog'liq. Bu muammo nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat imkoniyatlariga ishonchsizlik yuzaga kelishi va ular mehnat faoliyatida faol qatnasha olmasliklariga olib keladi. Shuningdek, jamiyatdagi insonlarning nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan hurmatsizlik va qadrlashning kamligi natijasida, ular o'zlarining mehnat qobiliyatlarini to'liq namoyon eta olmaydi. Bu holat ijtimoiy integratsiya va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z-o'zini anglash va ijtimoiy faolligini pasaytiradi.

Beshinchi muammo nogironlar faoliyat olib boradigan korxonalar va ishlab chiqarish subyektlarini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashda texnik vosita va jihozlarning yetishmasligi muammosidir. Bu muammo nogironlar uchun mo'ljallangan korxonalar va ishlab chiqarish subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va jihozlarning yetishmasligi bilan bog'liq. Natijada, ular o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshira olmay, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan cheklovlarga duch kelmoqda. Muammoni hal qilish uchun texnik vositalar va jihozlarni yetkazib berish va ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nogironlar uchun yaratilgan ish sharoitlarini yaxshilash va ularning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



1-rasm. Respublikada jami ishlovchi NBSH sonining 2016-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2030-yillarga prognoz qiymatlari, nafar 3-rasmga ko'ra, respublikamizdagi jami ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar soniga oid.

2016-2022-yillardagi ma'lumotlari va 2023-2030 yillarga prognoz qiymatlari berilgan. Unga ko'ra, ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar 2016-2020-yillarda 20 100-34 500 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 43 799 nafarni tashkil etgan. Bugungi kunga kelib, jami – 71 595 nafarni tashkil etadi. Agar shunday o'sishda davom etsa, 2030-yilga kelib, jami ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar 102 mingdan oshishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Agar nogironligi bo'lgan shaxslarni zaxiralangan bo'sh ish o'rinlaridagi kasblarga o'qitish ishlari jadal olib borilsa, ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar sonining yanada ortishi prognoz qilinmoqda. Umuman olganda, ko'p omilli ekonometrik model orqali juda ko'plab prognozlar qilish mumkin va bu bizga kelajakdagi qilinishi kerak bo'lgan ishlarning rejasini tuzishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.⁹⁹

So'nggi yillarda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini moliyalashtirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida tizimli va sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda oxirgi 5 yil ichida faoliyatni tartibga solish uchun bir qator huquqiy hujjatlar va normativ faoliyatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi, ishlab chiqarishda bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularning faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Natijada, bu sohada tizimli yondashuv va muhim huquqiy asoslar shakllantirildi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini rivojlantirish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni yanayam chuqur aniqlash maqsadida MHTI mutaxassislari tomonidan so'rov o'tkazdi. So'rovda turli xil nogironligi bo'lgan 161 kishi qatnashdi. Ularning 40,4 foizini

⁹⁹ Maxmudov Temur Asomidinovich. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida inklyuziv mehnat bozori istiqbollari. Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati - T. 2024. – B. 18



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



erkaklar, 59,6 foizini ayollar tashkil qildi. So'rovda qatnashganlarning o'rtacha yoshi 43,5 yoshga teng. Ularning 14,4 foizi I guruh, 84,5 foizi II guruh va 3,1 foizi III guruh nogironligi bo'lgan fuqarolardir.

Ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimlanishi: 23,6 foizi oliy, 45,9 foizi o'rta, 16,8 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega, 9,3 foizining esa ma'lumoti yo'q. So'rovda ishtirok etganlarning 30,4 foizi bolalikdan nogiron. Oilaviy holati: 42,2 foizi oilali, 15,5 foizi turmush qurmagan, 19,2 foizi ajrashgan, 5,6 foizi beva.

So'rovda ishtirok etganlarning 43,8 foizi mehnat daftarchasiga ega ekanligini bildirgan, lekin bor yo'g'i 8 foizi hozir iqtisodiyotda band, 3,1 foizi esa umuman ishlamagan. Respondentlarning 55,3 foizi nogironlik guruhi belgilanganidan so'ng ishdan ketish yoki ish o'rnini o'zgartirishga majbur bo'lgan. Respondentlarning 16,8 foizi nogironlik ularning ish o'rniga hech qanday ta'sir qilmaganini bildirgan (ularning 14,8 foizi tug'ma nogiron).

Ish joyini o'zgartirish yoki ishdan ketishga majbur bo'lish sabablari: 3,5 foizi nogironlik sabab ish haqi pasaygani, 34,8 foizi ish joyi nogironlar uchun moslashtirilmagani, 1,2 foizi ish beruvchining yomon munosabati, 1,2 foizi jamoat transportining moslashmagani tufayli ishdan ketishga majbur bo'lgan.

Respondentlarning 70,3 foizi 3 yildan ortiq vaqtdan buyon, 4,6 foizi 6 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatda ishsiz ekanligini bildirgan. Ishsizlarning 10,2 foizi qaramog'idagi oila a'zolarini ta'minlash va 5,5 foizi moddiy ehtiyojlarini qondirish (oziq-ovqat, kiyim-kechak sotib olish) uchun ish izlayotganini bildirgan.

Ishsizlar asosan tikuvchilik, qorovul, qandolatchilik kasblarida, shuningdek, axborot texnologiyalari hamda moliya mutaxassisliklari bo'yicha ishlash istagi borligini bildirgan.

Respondentlarning 5,5 foizi ish qidirish uchun bandlikka ko'maklashish markazlariga, 3,1 foizi qarindoshlar va tanishlar, ish beruvchilarga murojaat qilgan bo'lsa, 5,4 foizi hech qaerga murojaat qilmagan.

Respondentlarning 4,7 foizi nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan korxonalarda, 3,9 foizi iqtisodiyotning real sektorida ishlash istagi borligini bildirgan. Ishsiz respondentlarning 10,9 foizi to'liq bo'lmagan ish kuni va ish haftasida ishlashni, 3,9 foizi esa uydan turib ishlash istagi borligini bildirgan.

Ish topishda qanday qiyinchiliklarga duch kelyapsiz, degan savolga respondentlarning 7 foizi sog'ligi yaxshi emasligi, 6,2 foizi nogironlik bo'yicha cheklovlar mavjudligi va 3,9 foizi bo'sh o'rinlari yo'qligini bildirgan. Respondentlarning faqatgina 14,8 foizi kasbga qayta tayyorlanish va malaka oshirish istagini bildirgan.

Ishga joylashish (36,8 foiz) va yangi kasbni egallash (38 foiz) kasb egallash yoki malaka oshirishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilgan.

Respondentlarning deyarli 40 foizi bandlikka ko'maklashish markazlari haqida ma'lumotga ega emasligini bildirgan, 38,5 foizi esa bilishini lekin murojaat qilmaganligini aytgan.

Bandlikka ko'maklashish markazlaridan qanday yordam kutasiz, degan savolga respondentlarning 8,1 foizi kasbga qayta tayyorlash, 5 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



uchun maxsus ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish, 4,3 foizi o'z biznesini ochishda yordam olish uchun, deb javob bergan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar orasida bandlik darajasini oshirish uchun hukumat tomonidan nimalar qilinishi kerak degan savolga respondentlarning 18 foizi subsidiyalar ajratish, 8,7 foizi ish o'rinlari to'g'risida ma'lumot berib borish, 7,5 foizi kasbga tayyorlash kurslarida o'qitish va 6,8 foizi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda yordam berish, deb javob bergan.

Respondentlarning 8 foizi oliy o'quv yurtlarida o'qish istagi borligini, 25,5 foizi oliy o'quv yurtlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning tahsil olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganligini aytgan.

Respondentlarning 2,5 foizi nogironlik davrida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga harakat qilganini bildirgan. Nogironlik (44 foiz), bilim va malakaning yetishmasligi (16,8 foiz) va birlamchi mablag'ning yo'qligi (2,5 foiz) tadbirkorlik bilan shug'ullanmaslikning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilgan.

Respondentlarning bor yo'g'i 19 foizi davlat tomonidan nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun taklif etiladigan chora-tadbirlar haqida ma'lumotga ega ekanligini bildirgan. Respondentlarning 72,3 foizi oilaviy poliklinikalar tomonidan birlashtirilgan patronaj xizmatlaridan, 64 foizi yashash hududidagi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan shart-sharoitlardan, 80,1 foizi aholi orasida nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgan munosabatdan qoniqishini bildirgan.¹⁰⁰

Nogironligi bo'lgan shaxslarning moliyaviy ta'mini ta'minlash, ularni ishlab chiqarishga jalb etish va mehnat sharoitini yaratish bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda inson qadri, uning shaxsiyati va mehnat faoliyati muhim hisoblanadi.

Har bir islohotning asosiy nuqtasi inson qadri va uning ijtimoiy ahvolidir. Imkoniyati cheklangan shaxslarning mehnatini moliyalashtirish, ularni qo'llab-quvvatlash va ularga qulay ishlar yaratish bugun dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichi sifatida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda shu toifadagi shaxslarning bandligini ta'minlash yo'li belgilangan.

O'zbekiston aholisi 34,6 million kishini tashkil etadi. Ularning 60 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir (JB guruhi, 2022). ITIM va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi ma'lumotlariga ko'ra (2023 yil) katta yoshdagi aholining

¹⁰⁰ Muhabbat Ahmedova MHTI loyiha rahbari, Ilhom Ikromov MHTI katta ilmiy xodimi. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozorida inklyuziv bandligini ta'minlashning muhim jihatlari. 6 may 2024

<https://www.bing.com/ck/a?!&&p=70631e0a8b7c1abf8294aaf604ed8d85bff61aed7c474146119e1ba0de0316c2JmltdHM9MTc2NzU3MTIwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=nogironligi+bo%27lgan+shaxslar+mehnatini+moliyalashtirishning+mavjud+tizimi+va+uni ng+rivojlanish+&u=a1aHR0cHM6Ly9pbXJzLnV6L3B1YmxpY2F0aW9ucy9hcnRpY2xley1hbmQtYWJzdHJh Y3RzL2JhbmRsaWtuaV90YW1pbmxc2g>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



taxminan 18,4 foizi (4,2 million) ko'p qirrali kambag'allik holatidadir. 2022 yilda iqtisodiyotda 13,7 million kishi band bo'lgan bo'lsa, 1,3 million ishsiz bo'lgan. Ish bilan band bo'lgan nogironlar soni qaydi turli manbalarda turlicha bo'lib, mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlarning 5 foizidan (XMT, 2020) 7 foizigacha (BMT O'zbekiston, 2019) oraliqda ko'rsatiladi. Biroq, ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan odamlarning ish bilan ta'minlangan bo'lishligi ehtimoli nogironligi bo'lmaganlarga qaraganda to'rt baravar kam. Shu e'tiborga loyiqki, qishloq joylarda vaziyat yomonroq bo'lib, band bo'lgan nogironlar ulushi atigi 5,8%, ish bilan ta'minlangan nogiron ayollarning ulushi atigi 4,4% tashkil qiladi va bu nogironligi bo'lgan erkaklarning bandlik ko'rsatkichi (8,9%)dan sezilarli farq qiladi (Yusupov va Abduxalilov, 2022, BMTning O'zbekiston materiallari asosida, 2019 yil).¹⁰¹

Nogironligi bo'lgan shaxslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularga qulay ish o'rinlari yaratish, ish sharoitlarini ochib berish – bu O'zbekistonning yangi islohotlarda yangi tizimda faoliyat yuritishining davlat tomonidan ko'zda tutilgan yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun ularga qo'shimcha davlat subsidiyalari ajratish, ish organlarini qulay tizimli yo'lga qo'yish, ularning huquqiy ijrosini ta'minlashga qaratilgan choralar amalga oshirilishi kerak. Jarayon tizimli, tartibli va maqsadli ravishda amalga oshiriladi. Har bir faoliyatning asosiy negizida ijtimoiy himoya yotadi. Bu yo'nalishning asosiy jihati moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ishlab chiqarish resurslarini faoliyatini takomillashtirish va shu toifadagi shaxslar bandligini ta'minlashdan iborat.

Quyidagi eng muhim vazifalar:

- Birinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish subyektlarini qayta takomillashtirish va ularning faoliyatini moliyalashtirish.
- Ikkinchidan, nogironlar faoliyat olib boradigan ishlab chiqarish resurslarini texnik va moddiy jihatdan ta'minlash shart-sharoitlar yaratish.
- Uchinchidan, ishlab chiqarish resurslarini optimallashtirish, jahon savdo va xalqaro tizim, xalqaro tashkilotlar bilan aloqani takomillashtirish.
- To'rtinchidan, qo'shimcha imtiyozlar, subsidiyalar, grant, loyihalar va boshqa mablag'lar asosida ishlab chiqarishning qulay ma'qul yo'llarini inklyuziv tizimiga o'tish.
- Beshinchidan, tovar va xizmat ko'rsatishlar tizimida nogironlik bo'lgan shaxslarni bandligini yanada kuchaytirish va ularni faoliyatini takomillashtirish.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini tashkil etish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash alohida muhimdir. Buning uchun yuqorida keltirilgan asosiy taklif-mulohazalarni tizimli tashkil etib, ularga mos ish faoliyatini yaratish, mehnat resurslarini joriy etish zarur. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moliyaviy faoliyatni tashkil etish, ularning mehnatini muhofaza qilish va qo'shimcha imtiyozlar berish lozim. Shuningdek, ular faoliyat olib boradigan tashkilotlarni davlat dasturlari orqali har tomonlama ko'maklash moliyaviy

¹⁰¹ Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuvni targ'ib qilish borasida O'zbekistondagi davlat tizimini tahlil qilish. BMTTD, O'zbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Yevropa ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqotlari markazi, Mualliflar: Anette Skoppetta va Eszter Zolyomi, 2024 yil.





jihaddan ta'minlanishi kerak. Shunda ularning faoliyati tizimli va muvaffaqiyatli tashkil etiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya davlatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishning majburiy mexanizmlari qo'llanilmaydi, ammo mazkur davlatlarning qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishlari uchun boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxsning ish beruvchi bilan suhbat olib borishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi lozim, shu jumladan, ko'zi ojiz nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham, nogironligi bo'lgan shaxslarning shaxsiy hayotlariga aloqador ma'lumotlarni so'rab olish taqiqlanadi, ayrim holatlarda hattoki nogironlik to'g'risidagi ma'lumotnomani so'rab olishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Aksariyat rivojlangan davlatlarda (Shvesariya, Avstriya, Fransiya, Koreya, Italiya, Rossiya va h.k.), shu jumladan, O'zbekistonda ham nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashganligidan qat'i nazar pensiya to'lovining saqlab qolinishi ularning ishga joylashishlari uchun eng muhim rag'batlantiruvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya singari davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar ishga joylashganlaridan keyin pensiya 3 oydan 3 yilgacha to'lab borilib, uning oqilona ishga joylashganligi va o'z ishiga to'liq moslashganidan keyin pensiya to'lovi to'xtatiladi.

Rossiya, Ukraina va Belorussiyada nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish jarayoniga ergoterapevtlarni jalb etish mexanizmi keng joriy qilingan. Ushbu mutaxassislar nogiron shaxslarni cheklangan yoki yo'qotgan turmush faoliyatini tiklash bilan shug'ullanadi. Ergoterapevtlar bundan tashqari nogironligi bo'lgan shaxslarda ijtimoiy-maishiy ko'nikmalarni shakllantirish, orientatsiya, kasb ko'nikmalarini hosil qilish singari vazifalarni ham amalga oshiradi.¹⁰²

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatini samarali uchun zarur bo'ladi. Shu toifa uchun davlat tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi, rag'batlantirish choralari, ishlab chiqarish resurslariga alohida subsidiya va imtiyozlar hamda qo'shimcha moliyaviy manbalar ajratilishi kutiladi. Bu chora-tadbirlar faoliyatni takomillashishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning moliyaviy davlat qo'llab-quvvatlanishi, ularning mehnat muhofazasiga rioya qilinishi, qulay ish sharoiti yaratilishi ularning faoliyatini yaxshilab kelajakda bandligini ta'minlashga va ularning ish faoliyatining yaxshilanishiga yordam beradi.

¹⁰² Tursinboyev Olimjon. NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNI BANDLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN JARAYONLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI./ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. – Ташкент, 2012. – С. 116.
2. Muhabbat Ahmedova MHTI loyiha rahbari, Ilhom Ikromov MHTI katta ilmiy xodimi. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozorida inklyuziv bandligini ta'minlashning muhim jihatlari. 6 марта 2024//
<https://www.bing.com/ck/a?!&&p=70631e0a8b7c1abf8294aaf604ed8d85bff61aed7c474146119e1ba0de0316c2JmltdHM9MTc2NzU3MTIwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=nogironligi+bo%27lgan+shaxslar+mehnatini+moliyalashtirishning+mavjud+tizimi+va+uning+rivojlanish+&u=a1aHR0cHM6Ly9pbXJzLnV6L3B1YmxpY2F0aW9ucy9hcnRpY2xlcY1hbmQtYWJzdHJhY3RzL2JhbmRsaWtuaV90YW1pbmxhc2g>
3. И.А.Каримов Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Биринчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ўн тўртинчи сессиясидаги маъруза, 1999 йил 14 апрель. Материалы международного форума «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». – Ташкент, 2012. – С. 117.
4. Махмудов Темур Асомидинович. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida inklyuziv mehnat bozori istiqbollari. Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati - T. 2024. – B. 18
5. Muhabbat Ahmedova MHTI loyiha rahbari, Ilhom Ikromov MHTI katta ilmiy xodimi. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozorida inklyuziv bandligini ta'minlashning muhim jihatlari. 6 марта 2024//
<https://www.bing.com/ck/a?!&&p=70631e0a8b7c1abf8294aaf604ed8d85bff61aed7c474146119e1ba0de0316c2JmltdHM9MTc2NzU3MTIwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=nogironligi+bo%27lgan+shaxslar+mehnatini+moliyalashtirishning+mavjud+tizimi+va+uning+rivojlanish+&u=a1aHR0cHM6Ly9pbXJzLnV6L3B1YmxpY2F0aW9ucy9hcnRpY2xlcY1hbmQtYWJzdHJhY3RzL2JhbmRsaWtuaV90YW1pbmxhc2g>
6. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuvni targ'ib qilish borasida O'zbekistondagi davlat tizimini tahlil qilish. BMTTD, O'zbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Yevropa ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqotlari markazi, Mualliflar: Anette Skoppetta va Eszter Zolyomi, 2024 yil.